



Международная конференция

ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ ДЕКАБРЬ 2020

Сборник научных трудов
Павлодар, Республика Казахстан

Available at conferences.kz

ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ

В научный сборник вошли научные работы, посвященные широкому кругу современных проблем науки и образования, вопросов образовательных технологий 2020. - 85 с.

Главный редактор
Роза Муслимовна Жамиева

Редакционная коллегия

1.Абильдина Салтанат Куатовна

Заведующая кафедрой педагогики и методики начального обучения, доктор педагогических наук, профессор ККСОН

2.Ильясова Гульжазира Актуреевна

Заведующая кафедрой гражданского и трудового права, кандидат юридических наук, Профессор (Full Professor)

3.Досова Бибигуль Аралбаевна

доцент кафедры всемирной истории и международных отношений, кандидат исторических наук

4.Сабыржан Али Сабыржанович

доцент кафедры аудита, кандидат экономических наук, ассоциированный профессор.

5.Тлеужанова Гульназ Кошкимбаевна

декан факультета иностранных языков, Кандидат педагогических наук Ассоциированный профессор

6.Сейтжанов Олжас Темирбекович

зам начальника КА МВД РК им. Б. Бейсенова, к.ю.н, доцент полковник полиции

7.Аренова Лейла Климентьевна

к.ю.н. доцент кафедры уголовного права, процесса и криминалистики

Издательство не несет ответственности за материалы, опубликованные в сборнике. Все материалы поданы в авторской редакции и отображают персональную позицию участника конференции.

Контактная информация организационного комитета конференции:
Официальный сайт: conferences.kz

СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

Шарипов А.М., Алимов А.А., Сафаров З.Ф. ЮҚОРИ ЧАСТОТАЛИ ОСЦИЛЯТОР ВЕНТИЛЯЦИЯНИНГ ЯНГИ ТУФИЛГАН ЧАҚАЛОҚЛАРДА ОФИР НАФАС ЕТИШМОВЧИЛИГИДАГИ САМАДОРЛИГИ.....	37
Юлдашев Н.М., Расулова М. Т., Райимов А.Х ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ МОНООКСИГЕНАЗНОЙ СИСТЕМЫ ПЕЧЕНИ У ГИПЕРТЕНЗИВНЫХ КРЫС	38

ПЕДАГОГИКА

Ergasheva Fotima Esonaliyevna UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TA'LIM-TARBIYANING DOLZARB MASALALARI	
Eshpulatova Xadicha Muradovna TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI.....	44
Farmonova Dilafuz Sattarovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA BADIY ASAR MATNI USTIDA ISHLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	46
Ganiev E, Absalomov T.T., Hamdamov Y., Temirova Sh MECHANISMS FOR MODELING THE FORMATION OF THE MANAGEMENT OF PRESCHOOL EDUCATION	49
Rasulova Dilafro'z Mahmudovna, Narziyeva Ma'rifat Fayzullayevna BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIDA DIDAKTIK VOSITALAR ASOSIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH YO'LLARI	51
U.D.Ashurova, S.F.Mardiev, L.I.Ochilov, A.A.Istamov МАТЕМАТИКА ФАНИНИНГ О'QUV JARAYONIDAGI KENG FIKRLASHGA UNDOVCHI INTERFAOL METODLAR	53
Неъматова Самияхон Илхомжоновна МАЛАКА ОШИРИШ КУРС ТИНГЛОВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МАСТЕР-КЛАСС ДАРСЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ.....	55

ФИЛОЛОГИЯ

Alijonova Gulhayo Adiljon qizi MATN MAZMUNIY IDROKIDA SHAXS REFERENSIYASI.....	57
Ortiqov Ramazon, Ashirboev Samixon O'ZBEK TILI MASSIVNING QASHQADARYO DIALEKTAL HUDUDIDA KISHI ISMLARIDAGI IKKILAMCHI NOMINATSIYANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	59
Sh.M. Xaydarova O'ZBEK TILINI O'RGATISH DARAJALARINING MAQSADI HAQIDA.....	62
Жуманиязова Мухаббат Болтаевна ОҒАҲИЙ - УЛКАН ИСТЕЪДОД СОҲИБИ.....	64
Очилова Нилуфар Номозовна ИЛМИЙ ДИСКУРСДА ЭКСПРЕССИВЛИКНИ ЮЗАГА КЕЛТИРИШ ТАМОЙИЛЛАРИ.....	66
Валиева Мукаддасхон Азиз қизи ФОРС ТИЛИДА ИСМИЙ ҚИСМИ “ ۋل ” BĀLĀ” СЎЗИ БИЛАН ИФОДАЛАНГАН ҚЎШМА ФЕЪЛНИНГ КОННОТАТИВ МАЪНОЛАРИ.....	68

ПСИХОЛОГИЯ

Н.Ш.Орибжоновна ШАХСДАГИ МАЪНАВИЯТ ВА АХЛОҚ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ ИЛМИЙ ТАЛҚИНИ	72
----------------------------------------------------------------------------------------------	----

MATEMATIKA FANINING O'QUV JARAYONIDAGI KENG FIKRLASHGA UNDOVCHI INTERFAOL METODLAR.

U.D.Ashurova - BMTI "Matematika" kafedrasida o'qituvchisi,
S.F.Mardiev - BMTI talabasi,
L.I.Ochilov - BuxDU "Fizika" kafedrasida o'qituvchisi,
A.A.Istamov - BuxDU talabasi.

Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Bunda ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari olingan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;
- ta'lim jarayoni ta'lim oluvchining maqsad va ehtiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash o'quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri echimini topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, o'quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o'quvchi-talabalarning bilim, ko'nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi.

Yuqorida aytilganlardan interfaol ta'lim metodlarini tegishli tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati ma'lum bo'ladi. Quyida ushbu masala yuzasidan umumiy mulohazalarni keltiramiz.

Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta'lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin. Shunday interfaol metodlardan biri bu klasterdir. Ushbu atamaning tub mohiyatini anglash uchun avvalo, uni kelib chiqishi bilan tanishish zarur.

Klaster atamasi fransuzcha so'z bo'lib, o'zbekcha tarjimai bog'lam, guruh, to'planish degan ma'nolarni beradi. Klaster nazariyasining asosi bo'lib, Al'fred Marshallning XIX asr oxirida yozilgan «Iqtisodiyot prinsiplari» nomli asarida (1890) ixtisoslashgan tarmoq-sohalarning alohida hududlarda uyg'unlashishi to'g'risidagi fikr-mulohazalari hisoblanadi. Shuningdek, klaster nazariyasini o'rganish jahon jamiyatida tez sur'atlarda o'sib bormoqda va uni amaliyotda qo'llash esa milliy va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo'nalishiga aylanmoqda. 1980 yillardan keyin «Klaster nazariyasi» ning rivojlanishida 3 ta muhim (Amerika, Britaniya va Skandinaviya va boshqa) ilmiy maktablar yutuqlarini ko'rishimiz mumkin.

Amerika olimlari M.Porter «Raqobat ustunligi nazariyasi», M.Enrayt, S.Rezenfel'd, P.Maskell va M.Lorensenlar «Mintaqaviy klasterlar konsepsiyasi», A.Marshall «Sanoat hududlari nazariyasi», P.Bekatin «Italiyan sanoat okruglari nazariyalari», M.Storper «Ideal hududiy klaster» nazariyalarini yaratgan. Qo'shimcha qiymat va klasterlar zanjiri uyg'unligi, mintaqalarni o'qitish konsepsiyalari ham shu guruhdan o'rin olgan.

Aynan shu olimlar nazariyalarida klasterlar – ishlab chiqaruvchilar raqobat ustunligini oshirishda yuqori samarali bo'lib, ularning hududdagi ta'lim, fan, texnologik, iqtisodiy va boshqa xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlar faoliyati bilan uyg'unlashgan tizimi ekanligi ta'kidlanadi. Britaniya nazariyotchilarining (J.Danning, K.Brimen, Shmit, J.Xamfrilar) fikricha, klaster - o'zaro hamkorlikdagi institutlar tizimi sifatida iqtisodiyotning asosini belgilovchi institutsional nazariyalardir. Skandinaviya olimlari (B.O.Lundval', B.Yonson, B.Asxaym, A.Izakson) – klasterning evolyutsion rivoji bir qator bosqichlardan o'tishini aytishadi, ya'ni tug'ilishidan tugagunicha.

Klasterlar nazariyasi rus olimlari Yu.S.Artamonova, B.B.Xurustaliyev va boshqalar tomonidan ham o'rganilib, amaliyotga tatbiq etish bo'yicha loyihalar ishlab chiqilmoqda. Yuqoridagi nazariyalarni yaratilishi va ularning amaliy ahamiyati mamlakatlar, tarmoqlar va korxonalar

ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ

iqtisodiyoti raqobatdoshligini oshirish va yuqori samaradorlikka erishishni nazarda tutadi.

Shunday qilib, xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tahlillarida «klaster» tushunchasiga quyidagi ta'riflar berilgan:

- 1) klaster – bitta sohaga birlashgan va bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan korxonalar guruhi.
- 2) klaster – bitta geografik hududda joylashgan va bitta tarmoqni tashkil qiladigan korxonalar guruhi.
- 3) klaster – maxsus sohalar bo'yicha bitta geografik hududda faoliyat yuritayotgan, bir-biri bilan bog'liq bo'lgan va bir-birini to'ldiruvchi kompaniyalar, institutlar guruhi.
- 4) klaster – gorizontaal va vertikal ravishda funksional bog'liq bo'lgan korxonalar guruhi.
- 5) klaster – jamoaviy, xususiy va yarim jamoaviy ko'rinishda bir-biri bilan bog'liq va o'zaro bir-birini to'ldiruvchi korxonalar, tadqiqot va rivojlanish institutlari guruhi.
- 6) klaster – tijorat va notijorat tashkilotlari guruhi bo'lib, u guruhda faoliyat yuritayotgan har bir korxonaning raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.
- 7) klaster – xududiy konsentratsiyalashuviga asoslangan va texnologik zanjirga bog'langan tovar va xom ashyo yetkazib beruvchilar, asosiy ishlab chiqaruvchilarni birlashtirgan industirlashgan majmua.

Shulardan kelib chiqqan holda klasterning ta'lim jarayoniga, xususan, matematika faniga nisbatan tatbiq etilishini ko'rib chiqamiz.

Klaster metodi

Klaster so'zining ma'nosi "tarmoqlar" so'ziga to'g'ri keladi. Klasterdan darsning tushintirish va fikrlash qismlarida foydalanish mumkin. Fikrlarning tarmoqlanishi – bu pedagogik strategiya bo'lib, u o'quvchilarni biron bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam beradi, o'quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'lagan holda tarmoqlashlariga o'rganadi. Bu metod biror mavzuni chuqur o'rganishdan avval o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda o'quvchilarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

Klaster metodi talabani o'ziga ishonchni dunyo qarashini kengaytiradigan metodlardan biri bo'lib, ular keng va tiniq mulohaza qila oladi. Mavzuga o'zi keng fikr bildirgach ular o'z-o'zidan mavzuni mustahkamlay oladi.

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o'tkazib yoki o'quv seminarini yakunida (tinglovchilarning o'quv-seminar haqidagi fikrlarini bilish maqsadida), yoki o'quv rejasi asosida biror-bir bo'lim o'rganilgandan so'ng qo'llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda o'quvchi-talabalarni o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

F - *Fikringizni* bayon eting

S - Fikringiz bayoniga biror-bir *sabab* ko'rsating.

M - Ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi (isbotlovchi) izoh keltiring.

U - Fikringizni *umumlashtiring*.

F – (fikr)

S – (sabab)

M- (mulohaza)

U – (umumlashtirish)

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning interfaol metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishda interfaol metodlarni qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi.

Adabiyotlar

I.L.P. Stoylova, A.M. Pishkalo. Boshlang'ich matematika kursi asoslari. -T., 1991. 2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi T., sharq, 1997.